

Kompetentlik lotincha soʻz boʻlib, somtetens – munosib, muvofiq, tegishli, layoqatli, bilimli degan maʼnolarni anglatadi. Har taraflama bilimlarga ega boʻlgan insonning sifatidir.

Kompetensiya lotincha “competere” – maqsadga erishish, munosib boʻlmoq, toʻgʻri kelmoq kabi maʼnolarni bildiradi. Bu soʻz ilk bor Yevropada 1596-yilda Vikiped lugʻatida ishlatilgan. Hozirda Vikipedeya elektron lugʻatida “kompetensiya” tushunchasi bu xodimning lovozim talablariga muvofiq ishlash qobiliyatidir.

Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasida “kompetensiya” tushunchasi lotincha compete – erishyapman, munosibman, loyiqlan degan maʼnolarni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik – bu oʻqituvchining maʼnaviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati yaʼni, uning kasbiy imkoniyatlar salohiyatini tasvirlaydi. Kasbiy kompetentlik bu tashkilotchilik, tadqiqotchilik, ijodkorlik qobiliyatkari, kasbiy bilim, koʻnikma va malakalari darajasining yuqoriligi boʻlsa, pedagogik kompetentlik bu qator zaruriy umuminsoniy sifatlariga ega boʻlishdir.

Musiqiy kompetentlik- bu shaxsning musiqa sohasiga oid har tomonlama bilimlarga ega ekanligi, shu sohaga oid barcha pedagogik jarayonlarni tashkil eta olish va boshqara olish layoqatining mavjudligini tasvirolovchi kasbiy imkoniyatlar salohiyatini anglatadi.

Boʻlajak musiqa oʻqituvchilarini oʻquvchilarda ijodkor shaxsni rivojlantirishga tayyorlash – talabalarlarga musiqa darslarida modulli taʼlim texnologiyasidan foydalanishni, ijrochilik va ijodkorlik mahoratlariga eʼtibor berishi, amaliy faoliyatda musiqiy bilim, koʻnikma va malakalardan foydalanishni oʻrgatish lozim. Boʻlgʻusi musiqa oʻqituvchisining metodik tayyorgarligining maqsadi sifatida musiqa darslarini oʻqitish sifatida oʻquvchilarda shaxs rivojlanishini amalga oshirish uchun layoqatli boʻlajak pedagog ijodkor shaxsini shakllantirish nomoyon boʻladi. Boʻlgʻusi musiqa oʻqituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirish – anʼanaviy kurslarni zamon talablariga mos ilgʻor pedagogik va axborot kommunikatsion va modulli oʻqitish texnologiyalari orqali takomillashtirish hamda musiqiy ixtisoslashuvni taʼminlovchi yangicha oʻqitish tizimini ishlab chiqish hisobiga taʼlim jarayonini mazmunan yangilashdir. Oliy taʼlim muassasalari boʻlajak musiqa taʼlimi oʻqituvchilarini modulli oʻqitish texnologiyalari asosida faoliyat yuritayotgan maktablar sharoitida faoliyat yuritishga tayyorlashi, har bir maktab oʻquvchisi qiziqishlari va qobiliyatlari hisobga olingan holda maktab oʻquvchilarida musiqiy bilimlarni egallashini taʼminlovchi shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlimni amalga oshirishning asosiy yoʻllaridan biri sifatida modulli oʻqitish taʼlimiga ijobiy munosabatni shakllantirish

Adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni. -T.: “Xalq soʻzi”, 8-fevral 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: “Oʻzbekiston”, 2017, 488-b.

3. Avliyoqulov N.X. Oʻqitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari. -Buxoro: 2000

4. Karimova D. Musiqa oʻqitishda innovatsion texnologiyalar. Darslik. -Toshkent: 2012.

REZYUME

Maqolada modulli taʼlim texnologiyalari, oliy taʼlim tizimida ulardan foydalanishning ahamiyati va boʻlajak musiqa oʻqituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish haqida fikr yuritilgan.

PEZIOME

В статье рассматриваются модульные технологии обучения, важность их использования в системе высшего образования, а также повышение профессиональной компетентности будущих учителей музыки.

SUMMARY

The article deals with modular learning technologies, the importance of their use in the higher education system, and the improvement of professional competence of future music teachers.

UDK 372.362

BOLALAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA “BOLAJON” TELEKANALINING OʻRNI VA AHAMIYATI

N.X.Oripova – *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

S.B.Ashirova - *oʻqituvchi*

Qarshi davlat universiteti

Tayanch soʻzlar: dunyoqarash, axborot, OAV, telekanal, rukn.

Ключевые слова: мировоззрение, информация, средства массовой информации, телеканал.

Key words: worldview, information, media, channel.

XXI asr oʻz nomi bilan axborotlar asri sifatida tilga olina boshladi. Hech shubhasiz, bu asrda axborotlar shu

lozim. Boʻlgʻusi musiqa oʻqituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirishda modulli oʻqitish texnologiyasi asosiy omil boʻlib xizmat qiladi. Oliy taʼlim muassasalari-da boʻlgʻusi musiqa taʼlimi oʻqituvchilarini modulli oʻqitish uchun sohaga oid professor-oʻqituvchilarning kasbiy faoliyatini tizimli tashkil etish, darsliklar, oʻquv-qoʻllanmalari, reja va dasturlar mazmunini mazkur tizim asosida shakllantirish zarurati tugʻilmoqda. Bu jarayonda modulli tizim asosida oʻqituvchining innovatsion faoliyatini tahlil qilish va baholash, kelgusidagi faoliyatning aniq maqsadini shakllantirish, uni amalga oshirish imkoniyatlarini ham beradi. Oliy taʼlim muassasasida musiqa darslarida oʻquv jarayonining sodda va muqobil yoʻnalishlarini shakllantirish, oʻqitishdagi innovatsiyalar va ilgʻor xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil etgan holda ish olib borish, musiqa taʼlimiga oid oʻquv fanlarining oʻquv-uslubiy majmualari, keyslar toʻplami va amaliy topshiriqlarni yangicha mazmunda tashkil etish boʻlgʻusi musiqa taʼlimi oʻqituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Boʻlgʻusi musiqa taʼlimi oʻqituvchilari kasbiy faoliyatlarini jarayonida umumtaʼlim maktablarining musiqa darslarini tashkil etishda oʻzlashtirgan kasbiy kompetentlariga tayanadi. Darslarning oʻtilishida yuqorida taʼkidlab oʻtilgan jihatlariga eʼtiborning sustligi, fan oʻqituvchilarning darslarni pedagogik va metodik jihatdan toʻgʻri tashkil qilishlari uchun kasbiy-malakaviy tayyorgarliklarining talab darajada emasligi natijasidir. Bu esa, birinchi galda, oliy pedagogik taʼlim jarayonida boʻlajak musiqa oʻqituvchilarini maktab faoliyatiga tayyorlash ishlarini uzluksiz takomillashtirib borishni taqozo etadi. Pedagogika oliy oʻquv yurtlaridagi “Musiqiy taʼlim” yoʻnalishi oʻquv rejasidagi fanlari mashgʻulotlari jarayonida talabalarni kasbiy kompetentligini takomillashtirib borish, naziriy bilim va tushunchalarga keng oʻrin berish, darslarni modulli oʻqitish texnologiyalari asosida tashkil etish boʻlgʻusi musiqa oʻqituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash uchun puxta zamin yaratilishiga xizmat qiladi.

Ayni vaqtda oʻqituvchining kasbiy kompetentlik asosida darsni oʻzining qobiliyati, metodlari va tashkil etishi bilan oʻquvchilarga taʼlimiy va tarbiyaviy taʼsir koʻrsatib, ularda musiqiy dunyoqarashni, gʻoyaviy ijodkorlikni, shaxsning maʼnaviy sifatlarini va musiqiy bilimlarini shakllantiradi.

Boʻlgʻusi musiqa oʻqituvchisi kelgusi pedagogik faoliyati davomida musiqa darsini tamoyillarga muvofiq tashkil etishi, oʻquvchilarga tarbiyaviy taʼsir oʻtkazishi, ijrochilik mahoratlarini egallashiga, musiqa asarlarini puxta va ongli tarzda oʻzlashtirishiga, musiqaviy malaka va koʻnikmalarini shakllanishiga, erkin ijod qilishiga imkoniyat yaratib berishi lozim [4:43].

O'z navbatida kishilarning dunyoqarashi, munosabatlari, fikrlashi ham axborotlar asriga moslashib bormoqda. Yurtimizda axborotlarga bo'lgan etijoning rivojlanib borishi ham dunyoda axborotlarning tezkor rivojlanishi natijasida ro'y bermoqda. Bizga ma'lumki, har qanday axborot OAV vositalari orqali tarqaladi. OAV vositalarisiz bugun ijtimoiy turmushni tasavvur eta olmaymiz. Bu oila bo'ladimi, muassasa bo'ladimi, zavod-fabrikami barcha sohada OAV vositalaridan kishilar foydalanib turganini kuzatamiz. OAV vositalari ayni vaqtda chegara va vaqt tanlamay qo'ydi. Ularni shaharning qoq markazida ham, qishloqning chekkasida ham uchratishimiz mumkin. Shu kunlarga kelib, mamlakatimizdagi ommaviy axborot vositalarining soni 1392 tadan ortib ketdi.

Bu ishlar O'zbekiston tarixiga uning mustaqillikka erishishi, ommaviy axborot vositalari sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, tadbirlar, qator farmon, farmoyishlarning qabul qilinishi bilan bog'liq desak adashmaymiz. Siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar, o'zgarishlar yangi-yangi texnologiyalarni barcha sohalarida muvaffaqiyatli tarzda qo'llash imkoniyatlari, zaruriyatlarini keltirib chiqardi. Shu bois axborot texnologiyalaridan foydalanish va uni qo'llash faqat ezgu ishlarda foydalanishga hukumat miqyosida katta ahamiyat berila boshlandi. Negaki mamlakatimiz aholisining dunyoqarashi va ma'naviyatini yuksaltiruvchi bugungi kunning eng muhim va keng qamrovli vositasi bu – ommaviy axborot vositalaridir. 2007 yil 15-yanvarda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi [27] qonuni qabul qilindi.

Ushbu ommaviy axborot vositalarini tahlil qiladigan bo'lsak, ularning barchasi shaxs dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi. Ular orqali kishilarning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, estetik-ekologik va ijtimoiy ongi yuksaladi. Shu bilan birga kishilar ular orqali dunyo yangiliklaridan, fan va texnika yutuqlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan xabardor bo'lib boradilar. O'z navbatida OAVlar yosh avlod dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Yurtimizda bolalar uchun alohida gazeta va jurnallar, televideniye va radio ko'rsatuvlari faoliyat yuritib kelmoqda. Jumladan, 2013-yildan boshlab O'zbekiston televideniyesiga qarashli bolalar uchun "Bolajon" telekanali o'z ishini boshladi. Shu qisqa vaqt ichida bu kanal bolalarning sevimli kanaliga aylandi. Telekanalda bolalarni nafaqat aqliy, axloqiy, estetik, ekologik, jismoniy, vatanparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga, balki, ularning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga ham e'tibor berilmoqda.

Bizga ma'lumki, bolalar ko'proq oilada televideniyeга murojaat qiladilar. Shu boisdan televideniye ni respublikamizning har bir xonadoniga chuqur kirib borgan desak adashmaymiz. Bizga ma'lumki, bolalik deb atalmish bu davr o'zining qiziquvchanligi, sinchkovligi, tevarak-atrofni o'rganishga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ular nima uchun qor yog'ishini, kun va tun almashinuvini, momaqaldiroq, chaqmoq, quyosh va oy nurini taralishini, shamolning esishini, gullarning turfa xil rangda bo'lishi, xullas bar-barchalarini tez bilib olishni estaydilar. Va kattalarga tinimsiz savollar beradilar. Ba'zan ota-onalar tomonidan ularning bu savollariga yetarlicha yoki ularning yoshiga mos holda javob berilmaydi. Mana shu jarayonda bolalarga ularning sevimli do'stlari-teledasturlari yordamga keladi. Hatto bugungi kun bolalar teledasturlari ularga siyosiy bilimlar ham berib bormoqda.

"Bolajon" yangi telekanali dasturlari mamlakatimizga amaldagi raqamli teledasturlar ijtimoiy paketi tarkibida tarqatildi. U 3 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarga mo'ljallangan bo'lib, u etralab 7. 00 da boshlanadi va kechki 10 da yakunlanadi. Uning asosiy ruhnları quyidagilardan iborat: "Multipanarama", "Bilag'on bolajon", "Bolajon oshxonasi", "Quvnoq startlar", "ABC kids", "Sog'lom bolajon", "Mohir qo'llar", "Shaxsiy

gigiyena", "Bolajon gimnastikasi", "Bravo inglisch", "Feruz va Aziza ko'rsatuvi", "Tabiatga sayohat", "Katta tanaffus", "Sirli o'rmoncha", "Ertakchi bolajonlar", "Xappiy alfavet", "Bolajonlar sahnasi", "Landi, landi", "Topqir bolajon", "Zukkolar" va boshqalar. Ushbu ruhnlar juda qiziqarli olib borilmoqda. Telekanalda bolalarni har tomonlama: ham jismonan, ham ma'nan tarbiyalashga harakat qilinadi. Shuningdek, uning ruhnları bolaning dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, "ABC kids", "Bravo inglisch" dasturlari orqali bolalaringliz tilini o'rganadilar. Bunda bolalar turli-tuman o'yinlar, rang-barang vositalar yordamida tilni o'zlashtiradilar. Shu bois bolalar bu ko'rsatuvni bajonudil tomosha qiladilar. Ingliz tiliga oid atamaları yod oladilar va talaffuz qilishga o'rganadilar.

"Katta tanaffus", "Topqir bolajon", "Zukkolar" kabi dasturlarda bolajonlarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Ushbu dasturlar bolalarning o'zlari tomonidan olib boriladi va unda bolalar muaamoli vaziyatlarni yechadilar, turli savollarga javob topadilar, aqliy harakatda bo'ladilar.

Bolalarni jismoniy rivojlantirish va ular o'rtasida sog'lomlashtirish ishlarini targ'ib qilish maqsadida "Quvnoq startlar", "Sog'lom bolajon", "Shaxsiy gigiyena", "Bolajon gimnastikasi" kabi dasturlar olib boriladi. Ushbu dasturlar ham juda qiziqarli tarzda tashkil etilgan. Shuningdek, bolalar ushbu dasturlar orqali sportga oid yangidan-yangi ma'lumotlardan xabardor bo'lib boradilar. Masalan, sport o'yinlari, turlarining qachon va qayerda paydo bo'lganligi, sport anjomlarini bilib oladilar. "Bolajon oshxonasi" ko'rsatuvini alohida tilga olishimiz joizki, uni bolalarsevib tomosha qiladilar. Uning bosh qahramoni "Qozonoy opa" bolalarga sabzavot va mevalarning foydali xususiyatlarini, ularni qanday qilib saqlashni va ovqat, salat, pishiriq tayyorlashni o'rgatib boradi.

"Ertakchi bolajonlar", "Bolajonlar sahnasi" ko'rsatuvlarida bolajonlar o'zbekona qadriyatimiz bo'lmish odob-axloq qoidalarini o'zlashtiradilar va o'zlariga kerakli xulosani chiqarib oladilar.

"Bolajon" telekanalida eng ko'p vaqt ajratilgan ko'rsatuv bu "Multipanarama"dir. Bunda bolalarturli multfilmlarni tomosha qiladilar. Multfilmlar turli mavzularda bo'lishi bilan birgalikda, turli xalqlar turmushidan olinganligi bilan ajralib turadi. Hatto chet el multfilmlari ham berib boriladi. Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, multfilmlarga ovoz juda mahorat ila berilgan. Ovozlar bolalarni bezdirmaydi. Aksincha, ular bolalarda barcha ijobiy sifatlar, dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Multfilmlardagi badiiy bezak, ranglarning uyg'unligi, yorqinlik bolalarni o'ziga jalb etmay qolmaydi. Albatta bolalar multfilm qahramonlarining xatti-harakati, muomalasidan o'zlariga kerakli xulosani chiqarib oladilar. Yovuzlik ustidan yaxshilikni g'olib kelishini tushunib yetadilar. Shu bilan birga, multfilmlar orqali bolalarda tabiiy-ilmiy bilimlar shakllanadi, ular orqali bolalar o'zlarini qiziqitrgan tabiat: hayvont olami, o'simliklar, ularning yashash tarzi haqidagi ma'lumotlarni egallaydilar. Ayniqsa, bolalar multfilmlar orqali tabiatni asrashga, ular bilan munosabatga kirishishga o'rganib boradilar.

"Mohir qo'llar" ko'rsatuvida bolalar mehnat qilishga o'rganadilar, mehnat insonni ulug'lashini anglab yetadilar.

Biz yuqorida teledasturlarning bolalar dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qilib o'tdik. Biroq, xalqimizda bir dono fikr mavjud: "Asalning ham ozi shirin". Darhaqiqat, bolalarning o'z yoshlariga mos bo'lmagan teledasturlarni ko'rishi yoki uzoq vaqt televizor ko'rishlari ular sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan ota-onalar va tarbiyachipedagoglar bir qator jihatlarga e'tibor qaratishlari lozim bo'ladi:

1. Bola kun tartibini to'g'ri tashkil etish va nazoratni amalga oshirish;
2. Bolalar bilan ular tomosha qilgan teledasturlar va multfilmlarni muhokama qilish.
3. Bolalarni uzoq vaqt televizor ko'rishlariga yo'l qo'yimaslik.
4. Bolalar bilan ochiq havoda sayr qilish.

5. Bolalarni jismoniy harakatli o'yin va sportga jalb etish va boshqalar.

Umuman olganda, teledasturlar oilada bolalarning sevimli dasturi va do'stidir. Shunisi diqqatga sazovorki, dastur ruknlari orasidagi vaqt qisqaligi bilan ajralib turadi. Bunda bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olingan. Negaki, uzoq muddatli ko'rsatuvlar bolalarning ko'rsatuvdan zerikishiga olib keladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017—2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakat strategiyasi. 7 yanvar 2017.
2. Yusupov E. Falsafa. - T.: «Sharq», 1999. 494-b.

Maqolada bolalar dunyoqarashini shakllantirishda televideniyeining o'rni va ahamiyatiga to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga mazkur maqolada bolalarning sevimli telekanali bo'lgan "Bolojon"ning ruknlari tahlil qilinib, ularning bugungi davr bolalari ruhiy-ma'naviy ehtiyojini qondirishdagi imkoniyatlari ham bayon etiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье изложены роль и значение телевидения в формировании мировоззрения детей. Вместе с тем, в статье проанализированы передачи любимого детьми телеканала "Боложон" и изложены их возможности в удовлетворении духовных потребностей детей сегодняшнего периода.

РЕЗЮМЕ

The article outlines the role and importance of television in shaping the outlook of children. In addition, the article analyzes the programs of the "Bolojon" TV channel, loved by children, and outlines their capabilities in satisfying the spiritual challenges of the children of the current period.

SUMMARY

ТЎҒРИ БУРЧАКЛИ ПАРАЛЛЕЛ ПРОЕКЦИЯЛАШНИНГ ТЎҒРИ БУРЧАККА ОИД ХОССАСИ ИСБОТИГА ИЖОДИЙ ЁНДАШУВ

Х.Рихсибаева – докторант

Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш институти

Ш.Калликлишев – катта ўқитувчи

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

Таянч сўзлар: тўғри бурчаклик, хосса, оғиш бурчаги, креатив ёрдашув, тўғри бурчак, оғма томон, параллел томон, ҳақиқий катталиқ, ихтиёрий, махсус вазият.

Ключевые слова: прямоугольник, свойства, угол наклона, творческий подход, прямой угол, наклонная сторона, параллельная сторона, натуральная величина, произвольный, частное положение.

Key words: the rectangle, characteristics, corner of the slopping, creative approach, direct angle, tilted side, parallel side, natural value, free, quotient position.

Тўғри бурчакли параллел проекцияларнинг тўғри бурчакка оид хоссаси куйидагича ифодаланади: Агар тўғри бурчакнинг бир томони проекциялар текислигига параллел бўлса, унинг проекцияси ҳам тўғри бурчак бўлади.

Биз таҳлил қилиб чиққан адабиётларда бу хоссанинг исботи турлича келтирилган бўлиб, таълим дидактикасининг осондан қийинга, оддийдан мураккабга ва мавжуддан мавҳумга тамойили асосида ишлаб чиқилмаган. Шу боис педогогик ва психологик жиҳатдан талабаларнинг бундай исботларни ўзлаштиришлари қийин кечади.

Баъзи манбааларда тўғри бурчакнинг проекциялар текислигига параллел бўлган томони атрофидан иккинчи томони айлантирилиб, янги вазиятга келтирилса ҳам, иккинчи томони ўзининг дастлабки проекцияловчи текислигида ётиб қолишига асосланиб исбот қилинган [1,2].

Яна бир манбада тўғри бурчакнинг проекциялар текислигига параллел бўлган томонининг проекцияси ўзига параллел бўлгани ва иккинчи томонининг проекцияловчи текислигига перпендикулярлиги асосида исботланган [3].

Бу хосса тўғри бурчакнинг параллел ва оғма томонининг проекцияловчи текисликлари ўзаро перпендикуляр ва улар ўз навбатида проекциялар текислигига перпендикуляр эканлиги ҳамда уларнинг ўзаро кесишув чизиклари ҳам ўзаро перпендикуляр бўлишидан фойдаланиб исботланган [4].

Айрим таҳлил қилинган адабиётларда бу хосса куйидагича исботланган: аввал тўғри бурчакнинг оғма томонининг изи аниқланган. Сўнгра бу из орқали тўғри бурчакнинг биринчи томонига параллел тўғри чизик ўтказиб, уни бир вақтнинг ўзида иккинчи томоннинг проекциясига перпендикуляр ва биринчи томоннинг проекциясига параллел бўлишидан фойдаланилган [5].

Таҳлил қилинган Н.А.Антипина ва бошқалар муаллифлигидаги адабиётда, таълим дидактикасининг оддийдан мураккабга тамойили асосида тўғри бурчакнинг проекцияси тўғри бурчак бўлиши куйидагича исботланган:

Тўғри бурчакнинг ҳар икки томони проекциялар текислигига параллел қилиб олинган. Бундай ҳолатда тўғри бурчакли параллел проекциялашнинг "агар геометрик фигуралар проекциялар текислигига параллел бўлса, улар ўзгармай ўзларига тенг бўлиб проекцияланади" деган хоссасига асосан, фазодаги тўғри бурчакнинг проекцияси ҳеч қандай шубҳаларсиз тўғри бурчак бўлади [6].

М.Тубаев ва А.Қаҳхаров муаллифлигидаги ўқув қўлланмада "...Агар проекцияланувчи бурчак тўғри бўлса, текисликка ўз катталигида проекцияланиши учун бурчак томонларининг биттаси проекциялар текислигига параллел бўлса етарли (теорема исботсиз берилган)" [7] деб келтирилган.

Шуни таъкидлаш лозимки, икки томони проекциялар текислигига параллел бўлган тўғри бурчакнинг нафакат тўғри бурчаги ўзгармай тасвирланади, шунингдек, унинг ҳар иккала томони ҳам ҳақиқий узунликларида ва тўғри бурчак ҳақиқий кўринишида тасвирланади. Лекин тўғри бурчакни ҳақиқий кўринишида тасвирланиши ҳақида кўриб чиқилган ҳеч бир адабиётларда қайд этилмаган.

Яъни, агар бундай тўғри бурчакнинг бирор томони проекциялар текислигига оғдирилса ҳам, у ўша томоннинг дастлабки ҳолатида ўтказилган проекцияловчи текислигида ётганлиги учун, уларнинг проекциялари устма-уст ётади ва бир томони оғма бўлган тўғри бурчакнинг проекцияси ҳам тўғри бурчак бўлади.

Демак, тўғри бурчакли параллел проекцияларда тўғри бурчакнинг проекцияси тўғри бурчак бўлиши